

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|--|-----|
| G.A.Saparbayeva | |
| Madaniyat va san'at instituti talabalarining havaskorlik ssenariylar yozish qobiliyatini shakllantirish..... | 313 |
| H.M.Asadov | |
| Mavzu, mazmun va lirik qahramon talqini | 318 |
| A.A.Yarkulov | |
| Arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiyalash to'g'risida ba'zi mulohozalar | 322 |
| H.A.DJurayev, N.N.Nabiyeva, Sh.F.Latipov | |
| Abdulla Qodiriy ijodida teatr san`atining o'rni | 329 |
| J.DJ.Ashurov, E.X.Bozorov | |
| Oliy ta'lim muassasalarida "Yadro tibbiyotida radiatsion xavfsizlik" mavzusini o'qitishda muammoli vaziyat metodini qo'llash | 332 |
| D.M.Yuldasheva, S.S.Nishonova | |
| Bolalar ertak matnlarining kognitiv-semantik xususiyatlari..... | 336 |
| M.I.Imomaliyeva | |
| Amiriy ijodida Yusuf obrazi..... | 339 |
| G.M.Qosimova, M.I.Ne'matova | |
| Inson tabiati va xarakterini ifodalovchi frazeologizmlarning semantik xususiyatlari..... | 343 |
| N.Maqsudov | |
| Yoshlar huquqiy ongi va madaniyatini oshirish – demokratik davlatning muhim belgisi | 345 |
| S.A.Olimjonov | |
| Erix Mariya remarkning "Uch og'ayni" romanida ifoda va talqin | 347 |
| Z.A.Akbarova, N.Mamasoliyeva | |
| O'zbeklar olam Lisoniy manzarasida "Sabr" konsepti..... | 351 |
| I.S.Mannopov | |
| Xoja Ahmad Yassaviy ijodida munozara janri | 354 |

**YOSHLAR HUQUQIY ONGI VA MADANIYATINI OSHIRISH – DEMOKRATIK
DAVLATNING MUHIM BELGISI****ПОВЫШЕНИЕ ПРАВОСОЗНАНИЯ И КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ – ВАЖНЫЙ
ПРИЗНАК ДЕМОКРАТИЧЕСКОГО ГОСУДАРСТВА****RAISING THE LEGAL CONSCIOUSNESS AND CULTURE OF YOUNG PEOPLE IS
CONSIDERED AN IMPORTANT SIGN OF A DEMOCRATIC STATE****Maqsudov Nuriddin Nasriddinovich¹****¹Maqsudov Nuriddin Nasriddinovich**

– Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada yoshlarning huquqiy bilimlari ongi va madaniyatini yuksaltirish ularning ijtimoiy hayotda bo‘layotgan o‘zgarishlarga faol munosabatda bo‘lishiga, shaxsiy fikrlarini bildirgan holda, jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissalarini qo‘shishiga, o‘sib kelayotgan yosh avlodning huquqiy madaniyatni yuksaltirish, o‘z navbatida, davlat va jamiyat hayotini isloh qilish, amaldagi qonun hujjatlarini tanqidiy tahlildan o‘tkazish, davr talablaridan kelib chiqib, amaldagi qonunlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritish, eskirgan va taraqqiyotga to‘siq bo‘layotgan meyorlarni bekor qilish bilan bevosita bog‘liq ekanligi misollarda tahlil etildi.

Аннотация

В статье повышение уровня правовых знаний и культуры молодежи означает, что они активно реагируют на изменения в общественной жизни, высказывают свое личное мнение, способствуют развитию общества, повышают правовую культуру подрастающего молодого поколения, растут. С другой стороны, это непосредственно связано с реформированием государства и общества, критическим анализом действующих правовых документов, внесением соответствующих изменений в действующие законы исходя из требований времени, отменой устаревших норм, которые являются препятствием для развития, проанализированы на примерах.

Abstract

In this article, raising the awareness of legal knowledge and culture of young people means that they actively react to changes in social life, express their personal opinions, contribute to the development of society, raise the legal culture of the growing young generation, grow. At the same time, it is directly related to the reform of the state and society, the critical analysis of the current legal documents, the introduction of appropriate changes to the current laws based on the requirements of the time, and the abolition of outdated norms that are an obstacle to development. analyzed in examples.

Kalit so‘zlar: Davlat, jamiyat, qonun, yoshlar, siyosiy ong, huquqiy ong, huquqiy madaniyat**Ключевые слова:** государство, общество, право, молодежь, политическое сознание, правосознание, правовая культура.**Key words:** State, society, law, youth, political consciousness, legal consciousness, legal culture**KIRISH**

Mamlakatimizda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ularning hayotga mustaqil qadam qo‘yishlari uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish hamda ularni siyosiy-huquqiy ongini shakllantirishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmog‘da. Jumladan, o‘tgan 2021 yilni “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” deb nomlanishi ham yoshlarga naqadar katta e‘tibor berilayotganligini yaqqol timsoli sifatida ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma‘rifiy sohalardagi keng qamrovli islohotlar davridan o‘tayotgan ekan, eng avvalo, kelajak avlodning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatidagi o‘zgarishlarni o‘rganib borish va tegishli ijtimoiy tadqiqotlarni o‘tkazish orqali mazkur sohalarda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni oldini olish va manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini ko‘rsatmog‘da.

Jamiyatda kishilar qanchalik yuqori madaniyatli bo‘lsa, huquq normalarini, qonunlarni to‘g‘ri anglab, ularga amal qilsa, ularning huquq va erkinliklari buzilishi ham shunchalik kam bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ma‘limki, O‘zbekiston Respublikasida aholining huquqiy madaniyatini oshirishga katta e‘tibor berilib, mustaqillikning dastlabki yillarida “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi” qabul qilingan edi. Ushbu hujjat salkam chorak asr davomida huquqiy madaniyatni yuksaltirish amaliyotining asosi sifatida xizmat qildi.

Nihoyat, jamiyatdagi huquqiy jarayonlar ilgaridan tubdan farqlanishini va ijtimoiy munosabatlarda siyosiy-huquqiy jarayonlarni yangilanganini inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 9-yanvarda "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Farmon va shu asosidagi konsepsiya qabul qilindi.

Yuqorida ko'rsatilgan huquqiy hujjatlardan tashqari 2019-yil 13-dekabrda "Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4551-son qarori yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi dolzarb vazifalarni belgilab berdi.

Yoshlarning huquqiy bilimlari, ongi va madaniyati yuksak darajada bo'lsagina, ular ijtimoiy hayotda bo'layotgan o'zgarishlarga faol munosabatda bo'lishadi, shaxsiy fikrlarini bildirgan holda, jamiyat taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'shishi mumkin bo'ladi.

O'sib kelayotgan yosh avlodning huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, o'z navbatida, davlat va jamiyat hayotini isloh qilish, amaldagi qonun hujjatlarini tanqidiy tahlildan o'tkazish, davr talablaridan kelib chiqib, amaldagi konunlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish, eskirgan va taraqqiyotga to'siq bo'layotgan meyorlarni bekor qilish bilan bevosita bog'liqdir.

So'nggi vaqtlarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yoshlarga katta e'tibor qaratilmoqda va ularni hayotda o'z o'rnini topishlari hamda bilim olishlari uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Xususan, yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida, Prezident tomonidan «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi qonunni qabul qilinishi va uning nazorati O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati zimmasiga yuklatilishi ham bejiz emas. Mazkur qonunining 5-moddasida yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari, huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasini yuksaltirish, yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va boshqa shu kabi vazifalar qat'iy qilib belgilab qo'yilgan.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Mazkur tasdiqlangan qonunga asosan, yoshlarning demokratik huquqiy madaniyat darajasini baholash bo'yicha Huquqiy siyosat tadqiqot instituti tomonidan hududiy adliya organlari bilan hamkorlikda muntazam ravishda yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni o'rganish maqsadida, sotsiologik tadqiqotlar o'tkazib kelinmoqda.

Jumladan, respondentlar bilan o'tkazilgan so'rovnomalarda "Yurtimizda huquq sohasidagi yangiliklardan ko'proq qaysi vosita orqali xabardor bo'lasiz?" degan mazmundagi savolga ushbu so'rovnoma bo'yicha ishtirok etganlarning 65 % dan ortig'i Internetdagi ijtimoiy tarmoq orqali, 20 % televideniya bilan hamda qolgan 15 % o'z tengdoshlari bilan suhbat jarayonida xabardor bo'lishi ma'lum bo'ldi.

Ko'rinib turibdiki, yoshlarimiz Internet tarmog'i orqali huquqiy axborotdan xabardorlik aholi orasida qolgan ko'rsatkichlarga nisbatan yuqoriligini ko'rsatgan.

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa sifatida har bir O'zbekiston Respublikasi yoshlariga huquqiy savodxonlik nafaqat javobgarlikka duchor bo'lmaslik uchun, balki, avvalo, o'z huquqlarini himoya qilish, qonun bilan belgilangan qo'shimcha afzalliklardan foydalanish yoki jamiyat va davlat oldidagi o'z majburiyatlarini sidqidildan bajarish uchun ham kerak bo'ladi. Ya'ni, yoshlar tomonidan huquqiy bilimlarni o'zlashtirish uchun turtki sifatida qonun oldidagi qo'rquv emas, balki uni bilishdan rag'bat topish jamiyat va davlat rivoji uchun ko'proq manfaat kasb etadi.

Huquqiy targ'ibotni Internetdagi ijtimoiy saytlar orqali jadallashtirish bilan yoshlarning huquqiy axborotga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash, birinchidan, ularning ijtimoiy hayotda, davlat ishlarida ongli va faol ishtirok etishlari sharti bo'lsa, ikkinchidan, ularning farovon turmush tarzini, umumiy madaniyatini shakllantirish, uchinchidan, huquqbuzarliklarning oldini olish, jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, o'zaro teng huquqli hamkorlikni, ya'ni, bir so'z bilan aytganda adolatli, ma'nan barkamol va yuksak huquqiy madaniyatli yosh barkamol avlodni shakllanishiga zamin bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 1997 йил 29 август 466-1-сон қарори билан тасдиқланган Жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш Миллий дастури <https://lex.uz/docs/20.09.2022> йил ҳолатида
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 09 январдаги "Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тизimini тубдан такомиллаштириш тўғрисида"ги ПФ-5618-сонли Фармони. <https://lex.uz/docs/4149765>, 20.09.2022 йил ҳолатида
3. <https://www.president.uz/> мурожаат санаси 25.10.2022 йил
4. Монтескье Ш.Л. Избранные произведения. О законах, об их отношениях к различным существам. –М.: 1955. с.164-165.